



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI TOSHKENT VILOYATI HOKIMINING QARORI

2024 - yil 22 - fevral

103-10-0-Q/24

Toshkent viloyati hokimiligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-fevraldagi 79-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9-fevraldagi “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 79-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan, qaror qilaman:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 9- fevraldagi 79-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Quyida bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 5- yanvardagi 5-sonli qaroriga muvofiq:

suv xo‘jaligi tashkilotlari tomonidan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarga suv yetkazib berish xizmatlari uchun to‘lovlar bekor qilinganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligining tuman irrigatsiya bo‘limlari hamda maxsus xizmatlari negizida “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari (keyingi o‘rinlarda — suv yetkazib berish xizmatlari) tashkil etilganligi;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjetiga tushgan tushumning 40 foizi suv yetkazib berish xizmatlari faoliyatini moliyalashtirish, ularga tegishli obyektlarni saqlash va texnik holatini yaxshilash xarajatlariga yo‘naltirilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Vazirlar Mahkamasining qarori bilan quyidagilarni nazarda tutuvchi “Suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasalari to‘g‘risidagi nizom tasdiqlanganligi inobatga olinsin:

suv yetkazib berish xizmatlarining maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari;

suv yetkazib berish xizmatlari faoliyatini tashkil etish, uning huquqlari va javobgarligi;

suv yetkazib berish xizmatlari rahbarlarining asosiy funksional vazifalari va javobgarligi;

suv yetkazib berish xizmatlari faoliyatini moliyalashtirish, ularning xodimlari mehnatiga haq tulash va moddiy rag'batlantirish tartibi.

4. Viloyat hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari B.Alimbekov, "Chirchiq-Ohangaron" ITHB (B.Qurbonov):

tuman hokimliklari bilan birgalikda 2024-yilgi tasdiqlangan mahalliy byudjet daromadlari va xarajatlarini suv solig'ining prognoz qilingan summasini 40 foizga teng miqdorda oshirish yuzasidan Xalq deputatlari tuman Kengashlariga;

suv solig'i tushumi past bo'lgan tuman (shahar)larda suv yetkazib berish xizmatlari xodimlari ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni amalga oshirish uchun yetishmaydigan mablag'larni irrigatsiya bo'limlarini saqlash xarajatlari uchun mahalliy byudjetlarda ajratilgan mablag'larni tuman (shahar)lar byudjetlari o'rtasida qayta taqsimlash bo'yicha Xalq deputatlari viloyatlar Kengashiga taklif kiritsin.

Bunda ushbu mablag'larni suv yetkazib berish xizmatlari faoliyatini saqlash xarajatlariga yo'naltirish belgilab qo'yilganligi inobatga olinsin.

5. Quyi bo'g'indagi sug'orish tarmoqlari va ulardagi inshootlarni xatlovdan o'tkazish, tegishliligi bo'yicha balansga berish va himoya zonalarini inobatga olgan holda, kadastr hujjatlarini rasmiylashtirishni tashkil qilish bo'yicha viloyat ishchi guruhi tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

6. Viloyat hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari B.Alimbekov, "Chirchiq-Ohangaron" ITHB (B.Qurbonov), viloyat qishloq xo'jaligi boshqarmasi (R.Norbo'tayev), viloyat iqtisodiyot va moliya boshqarmasi (F.Xudoyberdiyev), viloyat adliya boshqarmasi (A.Dadajanov) va Kadastr agentligining viloyat boshqarmasi (R.Payziyev):

a) uch kun muddatda quyi bo'g'indagi sug'orish tarmoqlari va ulardagi inshootlarni xatlovdan o'tkazish, tegishliligi bo'yicha balansga berish va himoya zonalarini inobatga olgan holda, kadastr hujjatlarini rasmiylashtirishni tashkil qilish bo'yicha 2-ilovaga muvofiq namunaviy tarkibda tuman ishchi guruhlarini tashkil etsin;

b) ma'lumotlar bazasini kengaytirish maqsadida xatlovdan o'tkazilgan quyi bo'g'indagi sug'orish tarmoqlari va ulardagi inshootlar egalari kesimida klassifikatsiya va identifikatsiya qilinishini ta'minlasin;

v) xatlov natijasiga ko'ra egasizligi aniqlangan:

bitta suv iste'molchisiga xizmat ko'rsatuvchi ichki sug'orish tarmog'i, undagi bosh va ichki suv olish hamda boshqa inshootlarni, ulardan doimiy va maqsadli foydalanish hamda ta'mirlash-tiklash ishlarini amalga oshirish uchun tegishli suv iste'molchisiga to'lovlarsiz berilishini;

ikki va undan ortiq suv iste'molchilariga xizmat ko'rsatuvchi ichki sugorish tarmog'i, undagi bosh va ichki suv olish hamda boshqa inshootlarni, ulardan doimiy va maqsadli foydalanish hamda ta'mirlash-tiklash ishlarini amalga oshirish uchun tegishli xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarga to'lovlarsiz berilishini ta'minlasin;

g) xatlov natijasiga ko'ra sugorish tarmoqlaridagi ko'priklar xizmat ko'rsatishiga qarab tegishli tashkilotlarga, xususan umumfoydalanuvdagi yo'llarni bog'lovchi ko'priklarni O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari qo'mitasiga, ichki yo'llarni bog'lovchi ko'priklarni tuman (shahar) obodonlashtirish boshqarmalariga hamda kanallarni nazorat qilishga xizmat qiladigan ko'priklarni suv yetkazib berish xizmatlariga berish to'g'risida 2024-yil 1-iyulga qadar Vazirlar Mahkamasiga taklif kiritilsin.

7. Vazirlar Mahkamasitning qarori bilan suv yetkazib berish xizmatlarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligining Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi G'aznachilik xizmati qo'mitasida ochilgan depozit g'azna hisobvarag'ida shakllangan mablag' hisobidan 3-ilovaga muvofiq maxsus texnikalarni eng yaxshi takliflarni tanlash natijalariga ko'ra Suv xo'jaligi vazirligi tomonidan mahalliy va xorijiy ishlab chiqaruvchilardan yoki ularning rasmiy dilerlari va distribyutorlaridan xarid qilishga ruxsat berilganligi inobatga olisin.

8. O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Toshkent viloyati hokimining mazkur sohaga aloqador boshqa mavjud qarorlariga tegishli tartibda o'zgartirishlar kiritilsin.

9. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o'rinbosari v.b. B.Alimbekov zimmasiga yuklatilsin.

Toshkent viloyati hokimi



Z.Mirzayev

Toshkent viloyat hokimining
2024-yil 22-fevraldagi
103-10-0-Q/24-son qaroriga
1-ilova

**Quyi bo‘g‘indagi sug‘orish tarmoqlari va ulardagi inshootlarni xatlovdan
o‘tkazish, tegishliligi bo‘yicha balansga berish va kadastr hujjatlarini
rasmiylashtirishni tashkil qilish bo‘yicha viloyat ishchi guruhi tarkibi**

B.Alimbekov	- viloyat hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari, ishchi guruh rahbari
B.Qurbonov	- “Chirchiq-Ohangaron” ITHB —ishchi guruh rahbari o‘rinbosari
J.Axrorov	- Davlat kadastrlari palatasining viloyat boshqarmasi boshligi
S.Xudoyberdiyev	- Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi boshqarmasi boshligi
A.Dadajonov	- viloyat adliya boshqarmasi boshlig‘i
R.Fozilov	- “Bo‘z-suv” irrigatsiya tizimi boshqarmasi boshlig‘i
A.Ismatov	- “Parkent – Qorasuv” irrigatsiya tizimi boshqarmasi boshlig‘i
SH.To‘xtamishev	- “Ohangaron – Dalvarzin” irrigatsiya tizimi boshqarmasi boshlig‘i
N.To‘laganov	- Toshkent magistral kanal boshqarmasi boshlig‘i
M.Tillayev	- “Chirchiq – Ohangaron” irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi nasos stansiyalari va energetika boshqarmasi boshlig‘i
M.Eshonov	- “Chirchiq – Ohangaron” irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi huzuridagi meliorativ ekspiditsiyasi

Toshkent viloyat hokimining
2024-yil 22-fevraldagi
103-10-0-Q/24-son qaroriga
2-ilova

**Quyi bo'g'indagi sug'orish tarmoqlari va ulardagi inshootlarni xatlovdan
o'tkazish, tegishliligi bo'yicha balansga berish va kadastr hujjatlarini
rasmiylashtirishni tashkil qilish bo'yicha tuman ishchi guruhlarining**

NAMUNAVIY TARKIBI

<i>Lavozimiga ko'ra</i>	tuman (shahar) hokimi, ishchi guruh rahbari
	-
<i>Lavozimiga ko'ra</i>	- tuman hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari, ishchi guruh rahbari o'rinbosari
<i>Lavozimiga ko'ra</i>	- Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi hududiy boshqarmasining mas'ul xodimi
<i>Lavozimiga ko'ra</i>	- Davlat kadastrlari palatasining tuman filiali rahbari
<i>Lavozimiga ko'ra</i>	- tuman adliya bo'limi boshlig'i
<i>Lavozimiga ko'ra</i>	- tuman suv yetkazib berish xizmati rahbari

Izoh. Zaruratga ko'ra ishchi guruh rahbari tomonidan ishchi guruh tarkibiga boshqa tashkilotlarning vakillari ham kiritilishi mumkin.

Toshkent viloyat hokimining
2024-yil 22-fevraldagi
103-10-0-Q/24-son qaroriga
3-ilova

**“Suv etkazib berish xizmati” davlat muassasalari tomonidan xarid
qilinadigan maxsus texnikalar
RO‘YXATI**

t/r	Davlat muassasalari nomi	Ekskavatorlar soni*, dona
Toshkent viloyati		
1.	“Chinoz tumani suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi	1
2.	“Bekobod tumani suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi	1
3.	“Oqqo‘rg‘on tumani suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi	1
4.	“Parkent tumani suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi	1
5.	“Bo‘ka tumani suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi	1
6.	“Zangiota tumani suv yetkazib berish xizmati” davlat muassasasi	1
Jami		6